

## O'ZBEKISTONNING BOSHQA MAMLAKATLAR BILAN MADANIY VA IQTISODIY ALOQALARIGA OID HUJJATLAR, TERMINLAR TARJIMASI

**Tolipova Marjonabegim Xolbek Qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti talabasi.

E-mail: [Gofurovxolbek25@gmail.com](mailto:Gofurovxolbek25@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining XXI asrda jahon iqtisodiyotida va xalqaro munosabatlarda o'rniga oid ma'lumotlar taqdim etilgan. Maqolada O'zbekistonning jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarda egasi sifatida o'z o'rnini o'zgartirishi, import va eksportning roli, va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari yoritilgan va shuningdek bu maqolada mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga berilgan e'tibor, iqtisodiy munosabatlarda chet tillarini bilishning zaruriyati, iqtisodiy so'zlar va atamalarining qanday shaklda qo'llanilishini to'g'ri keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Jahon iqtisodiyoti, import, milliy iqtisodiyot, munosabatlar, elchixonalar, tashqi savdo, hujjatlar, madaniy, xalqaro.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о месте Республики Узбекистан в мировой экономике и международных отношениях в 21 веке. В статье описано изменение положения Узбекистана как хозяина в мировой экономике и международных отношениях, роль импорта и экспорта, его отношения с международными организациями. А также в этой статье представлено внимание, уделяемое изучению иностранных языков в нашей стране, необходимость знания иностранных языков в экономических отношениях, правильное употребление экономических слов и терминов.

**Ключевые слова:** Мировая экономика, импорт, национальная экономика, отношения, посольства, внешняя торговля, документы, культурные, международные.

**Annotation:** This article presents information about the place of the Republic of Uzbekistan in the world economy and international relations in the 21st century. The article describes the changing position of Uzbekistan as an owner in the world economy and international relations, the role of import and export, and relations with international organizations. the need-to-know foreign languages in economic relations, how economic words and terms are used are correctly stated.

**Keywords:** World economy, import, national economy, relations, embassies, foreign trade, documents, cultural, international.

O'zbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligining kuchayishiga parallel ravishda milliy iqtisodiyot shakllanish boshladi. Milliy iqtisodiyot, tarixan ma'lum bir davlat hududida o'zaro bog'liq tarmoqlarning bir-biriga maqsadi va ish taqsimoti asosida tashkil topgan iqtisodiy tizimlarning birligini ifodalaydi. Milliy iqtisodiyot, o'zining xususiyatlariga ega bo'lgan munosabatlari, boshqaruv tizimi, umumiy iqtisodiy infratuzilmasi va mustaqil qonun tizimiga ega bo'lgan mustaqil davlatlikni ko'rsatib beradi.

Har bir katta davlatlar kabi, O'zbekiston ham jahon iqtisodiyotida o'z hissasini olishga intilmoqda. Jahon iqtisodiyotiga qo'shilish, faqat eksport mahsulotlarini sotishdan iborat emas, balki import mahsulotlarini qabul qilishni ham o'z ichiga oladi. Albatta, mamlakatda eksport hajmi import hajmindan ko'p bo'lishi uchun mamlakatning iqtisodiyotiga foyda keltiradi. Ammo, boshqa tomondan qaraganda, mamlakat ichki mahsulotlarining haddan ziyod tashqi bozorga chiqishi, davlat ichki bozoriga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun, ko'pgina davlatlar iqtisodiyotlarida vaqtincha import hajmi eksport hajmidan ko'proq bo'lishi mumkin, ba'zida esa bu mantiqiy hodisalar kuzatilishi mumkin. Tashqi savdo qilishda esa import va eksport hajmlarining umumiy yig'indisi e'tiborga olinadi.[1]

Agar raqamlarga e'tibor bermoqchi bo'lsak, 2022-yilning yanvar-iyun davrida O'zbekistonda import hajmi eksport hajmiga nisbatan ancha oshishini kuzatamiz. Bu davr ichida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi \$28,1 milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatqi o'tgan yilning mos davriga nisbatan \$6,3 milliard dollarga oshib ketdi. Tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport \$11,3 milliard dollarni tashkil etdi. Bu tarkibda:

- Mahsulotlar - \$9,3 milliard dollarni,

- Xizmatlar - \$2 milliard dollarga teng bo'lgan. Yuqorida aytilgan holatda import eksportga nisbatan sezilarli darajada, unga \$16.8 milliard dollarni sarflangan. Bu tarkibda:

- Mahsulotlar - \$15,4 milliard dollarni,

- Xizmatlar - \$1,4 milliard dollarga yetdi.[2]

O'zbekiston jahon iqtisodiyotida o'z ulushi hajmini oshirib bormoqda. O'zbekiston endilikda rivojlangan davlatlar singari katta eksport mahsulotlarini onlayn savdo orqali ham olib borishga intilmoqda. Masalan, Alibaba platformasida O'zbekiston tadbirkorlarining joriy yil sentabr oyida \$67 mlnlik mahsulot eksport qilganligi e'lon qilindi. Hozirda esa, yil oxirigacha eksport qilinadigan tovar pozitsiyalarining soni 300 taga yetkazilishi rejalashtirilgan. Natijada, O'zbekiston jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lib, tijorat saytlarida Rossiya va Qozog'iston dan keyin III MDH davlati bo'ldi.

Hozirda eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan o'z mahsulotlarini ro'yxatdan o'tkazmoqchi bo'lgan 70 ta mahalliy eksport qiluvchi korxonalariga umumiy hisobda 4,6 mlrd. so'm miqdorda moliyaviy yordam ko'rsatilmoqda. O'zbekistonning shu yilgi iqtisodiyotiga ayni damdagi voqealar ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Rossiya investitsiyalar va pul o'tkazmalarining qisqarishi tufayli 2022-yilda O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi prognozini aprel oyida kamaytirdi. 2022-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o'sishi 4 foizni tashkil etdi, bu 2021-yilga nisbatan (7,4%) ancha pastdir. Biroq, 2023-yilda YaIM darajasi 4,5 foizgacha ko'tarilishi kutilmoqda.[3]

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga yo'l qo'yilmoqda. Jamiyatda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari joriy etilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi yangi so'zlar ko'paymoqda. Ularning bir qismi ona tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirib berilmoqda, ma'lum qismi esa baynalmilal o'zlashma sifatida ishlatilmoqda. Iqtisodiyot terminlarining o'zbek tilida qo'llanilishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

1. Ko'plab terminlar tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirilgan. Bunda bir guruh terminlar o'zbek tilidagi tayyor muqobillari bilan berilmoqda, ma'lum qismi esa tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o'zbek tili qonunqoidalari asosida yasalmoqda. Misol: auktsion-kimoshdi, makler-dallol, kommertsant-tijoratchi, kommissionie voznagrajdeniya-

vositachilik haqi, ekonomikaiqtisodiyot, chek na pred'yavitelya-oq chek, shaxssiz chek, aktsioner-aktsiyador, biznesmen-bizneschi va hokazolar.

2. Yana bir usul dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalmilal terminlarning o'zbek tiliga ham o'z holicha o'zlashtirilishi. Bu o'rinlarda yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga o'zbekcha muqobilini topish qiyin. Ular dunyoning ko'pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o'z asl holicha ishlatiladi va bu qo'llanish dunyo bizneschilari uchun qulaydir. Misol: korrupsiya, kredit, eksport, grant, auditor, avizo, valyuta, lizing, menedjer, litsenziya, biznesmen, norezident.[4]

Iqtisodiyot sohasida keng ishlatiladigan bir nechta terminlarni keltirish mumkin. Ularning ba'zilari o'zbekcha so'zlar bo'lsa, ba'zilari esa boshqa tillardan bevosita kirib kelib tilimizda qo'llanilmoqda.

AUKSION - Savdo xizmati, mahsulotni eng yuqori narxga ko'targan xaridor sotib oladi.

BANK - Pul mablag'larini bir davolash yig'uvchi, uzluksiz aylanib turishini ta'minlovchi muassasa, kredit, suda qilingan va to'lovlarni tekshirishga vositachilik qiluvchi, operatsiyalarni bajaruvchi kredit-moliya muassasi. B. pul qo'yuvchilarga ma'lumot foizini to'lash, qarz olganlardan davomiy foiz stavkasini undiradi va bankning foydasi mavjud.

BIZNES - Boylik, foyda orttirishga yo'naltirilgan faoliyat. Biznes xo'jalik yuritish ko'lamiga qarab yirik, o'rta va mayda turlarga bo'linadi.

BIZNESMEN - Biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs, korchalon.

BIRJA - Mahsulot, valyuta va qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish va sotishda faol qatnashuvchi tashkilot. Birja savdo-sotig'i bo'ladigan joy.

BOJ - Bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegara qo'yilgan tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho qog'ozlardan undiriladigan pul yig'implari.

BROKER - Rasmiy dallol, mahsulot, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta sotuvchilari va xaridorlar o'rtasidagi kelishuvlar tuzish huquqiga ega shaxs.

IPOTEKA - Qarz, kredit olish uchun biror-bir muayyan ko'chmas mulkni (yer, imorat va hokazo) garovga qo'yish.

LISENZIYA - Ruxsatnoma; 1) Chet mamlakatlardan mol keltirish yoki chet elga mol chiqarish uchun davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnoma; 2) Biror narsadan yengil shartlar bilan yoki bepul foydalanish huquqi; 3) Chegaradan mol chiqarish yoki mol kiritishda boj to'lovlarini kamaytirish. Patentlangan lisensiya ro'yxatga olinib, guvohnoma berilgan kashfiyotdan foydalanish huquqini boshqalarga berish.

PATENT - Xususiy tarzda tadbirkorlikning biror bir turi bilan shug'ullanishga ruxsat beruvchi guvohnoma, tegishli hujjatlar asosida moliya organlari tomonidan beriladi; ilmiy kashfiyot va ixtiroga mualliflikni tasdiqlovchi guvohnoma. Patent davlat tomonidan patentlashtiriladi.

POLIS - Shaxsiy yoki mulkiy sug'urta shartnomasi tuzilgani va uning shartlari haqidagi hujjat.[5]

Barcha ko'rsatilganlarni xulosalaylik, Xalqaro munosabatlarga boshqa tomondan yondoshadigan bo'lsak, poytaxtimizda 43 ta xorij davlat elchixonasi mavjud bo'lib, ularning aksariyati MDH davlatlari yoki O'zbekiston bilan tashqi savdo aloqalarini qat'iy ravishda yaxshi bog'lay olgan davlatlardir. Umumiy hisob bo'yicha hozirgi davrda O'zbekiston 136 ta davlat bilan diplomatik aloqalarni o'rganib borib, kelgusida yana 12 ta davlat bilan ham aloqalarni o'rnatishni rejalashtirgan. Aslida, O'zbekistonda 1995-yilda "Xalqaro munosabatlar" fakulteti ish boshlagan bo'lib, fakultetning asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi, shuningdek,

mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan aloqa olib boruvchi boshqa muassasalari, idora va tashkilotlari, chet mamlakatlardagi elchixonalar hamda xalqaro tashkilotlar uchun yuqori malakali kadrlar yetkazib berishdan iborat.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining rivojlanishi natijasida xususiy mulkchilikning har bir shakli keng yo'l ochib, tadbirkorlik faoliyatiga rivojlanmoqda. Bu jarayonda chet davlatlar bilan oldi-sotdi, ya'ni eksport-import ishlari ham amalga oshirilmoqda. Bu jarayon esa chet tillarini bilish juda muhimdir, xususan iqtisodiy neologizmlarni tushunish har birimizga zarurdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.
2. Anikina A. Iqtisodiy atamalar lug'ati inglizcha-ruscha. T., 1993.
3. Bektemirov X., E.Begmatov. Mustaqillik davri atamaları. –T.,2002.
4. Barotov.Z Iqtisodiy matnlarda neologizmlarning tarjima qilinishi. S., 2013.
5. Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005.
6. Z.Yo'ldoshev , X.Xalilova “Milliy va jahon iqtisodiyoti” (o'quv qo'llanma) Toshkent-2013.
7. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
8. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
9. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
10. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
11. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
12. Nilufar S., Elvira A. Gender specificity of pedagogical discourse //international scientific conferences with higher educational institutions. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
13. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
14. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
15. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek

- Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
18. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
  19. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
  20. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
  21. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
  22. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
  23. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).